



TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH TIZIMINING OLIB BORILISHI VA IJTIMOIY INSTITUTLARNING O'RNI.

Uralova Ma'rifat Shonazarovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi.

Uralovamarifat26@gmail.com

+998939311162

Annotatsiya: Ushbu maqolamiz orqali ta'lism tizimida olib borilayotgan islohatlar haqida so'z yuriladi. "Ta'lism tizimi" haqidagi qonunlardan munosib foydalanish bugungi yoshlarimizning eng asosiy vazifalaridan biridir. Ta'lism sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy qismini, albatta, Oliy ta'lism tizimidagi say-harakatlar tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Islohat, yoshlar siyosati, takomillashtirish, madaniyat, rivojlanish, xorijiy tajriba, muassasa, tarbiyalash.

Ta'lism muassasalarida umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy hodisa hisoblanib, yoshlarning shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash pedagogik jarayonning dolzarb muommolaridan biridir. Shuning uchun yurtimizda amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar kelajagimiz egalari hisoblangan yoshlarimizni Vatanni sevishga, uni asrab avaylashga, milliy g'oyalarga sadoqat sadoqat ruhida tarbiyalash jarayoni bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Yoshlar tarbiyasi ko'p qirrali hamda chuqr ma'noga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlar tomonidan jamiyat va uchun xizmat qiladigan barcha moddiy va ma'naviy yutuqlar majmuidir.

Ta'lism olishimizda va hayotda o'z o'rnimizga ega bo'lishimizda Ijtimoiy institutlarning ham o'rni beqiyos bu maqolamiz orqali yoritib o'tishga harakat qilamiz. Ijtimoiy institutning funksiyasi (lotinchadan – ijro etish, amalga oshirish) jamiyatga keltiradigan foyda, ya'ni bu hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar,



erishiladigan maqsadlar, ko'rsatiladigan xizmatlar majmuidir. Barcha ijtimoiy funksiyalarning yig'indisi ijtimoiy tizimning muayyan turlari sifatida ijtimoiy institutlarning umumiy ijtimoiy funksiyalarida shakllanadi. Bu xususiyatlat juda ko'p qirrali.

Ijtimoiy institutlarning birinchi va eng muhim vazifasi jamiyatning eng muhim hayotiy ehtiyojlarini qondirishdir, ya'ni ularsiz jamiyat mavjud bo'lolmaydi. U doimo yangi avlodlar bilan to'ldirilmasa, tirikchilik vositalariga ega bo'lmasa, tinch va osoyishta yashamasa, yangi bilimlarni o'zlashtirib, keyingi avlodlarga yetkazmasa, ma'naviy masalalar bilan shug'ullanmasa, mavjud bo'lolmaydi.

Deyarli barcha ijtimoiy institutlar (madaniy me'yorlarni o'zlashtirish va ijtimoiy rollarni rivojlantirish) tomonidan amalga oshiriladigan odamlarni sotsializatsiya qilish funksiyasi ham muhimroqdir. Uni universal deb atash mumkin. Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy institutlarning butun boshli bir tizimi mavjud . Ijtimoiy institut jamiyat a'zalarining o'zlarining u yoki bu ehtiyojlarini (Iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy va boshqa). Tarbiya ijtimoiy institut sifatida jamiyat resurslardan foydalanishda birgalikdagi faoliyatlarining tarixan shakllangan shaklidir . Tarbiya ijtimoiy institut sifatida jamiyat a'zolarining ijtimoiylashuvini amalga oshirish, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni yetqazish, umuman olganda, ijtimoiy ehtiyojlarini ehtiyojlarini qondirishni tashkil etish uchun paydo bo'lgan. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida muayyan jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida paydo bo'ladigan fenomen hisoblanadi.

Ba'zi institutlar ijtimoiy tartibni barqarorlashtirish funksiyasini bajaradi, boshqalari esa jamiyat madaniyatni qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi. Barcha universal va o'ziga xos funksiyalarni quyidagi funktsiyalar kombinatsiyasida ko'rsatish mumkin:



- 1) Takror ishlab chiqarish – jamiyat a’zolarining takror ishlab chiqarishi. Bu vazifani bajaruvchi asosiy institut oila hisoblanadi, lekin davlat, ta’lim, madaniyat kabi boshqa ijtimoiy institutlar ham ishtirok etadi.
- 2) Ishlab chiqarish va tarqatish. Iqtisodiy-ijtimoiy boshqaruva nazorat institutlar tomonidan ta’milnadi.
- 3) Ijtimoiylashtirish-ma’lum bir jamiyatda o’rnatilgan xulq-atvor shakllari va faoliyat usullarini – oila, ta’lim, din, va boshqalar institutlarini shaxsgalarga o’tkazish.
- 4) Boshqaruva va nazorat funksiyalari xulq-atvorning tegishli turlarini amalga oshiradigan ijtimoiy normalarga va qoidalar tizimi orqali amalga oshiriladi: axloqiy va huquqiy normalar, urf-odatlar, ma’muriy qarorlar va boshqalar. Ijtimoiy institutlar mukofot va sanksiyalar tizimi orqali shaxsning xatti-harakatlarini nazorat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim tizimidagi islohatlar va ta’lim sifatini oshirish maqsadida, Ijtimoiy institutlarning roli va o’rni beqiyosligini ko‘rishimiz mumkin. Va bu jarayonlarning muntazam bo‘layotgani davlatimizdagi ta’lim darajasining oshishi bilan ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaracherin A.G. va Matiskoviskiy M.S.Zamonaviy oila va uning muommolari M.2001.
2. Ta’lim muommolari ilmiy- uslubiy jurnal 4-sont Toshkent, 2004-yil
3. Xalq so‘zi 2013-yil 19-yanvar
4. A.Sh. Bekmurodov, Z.Y. Karimov – Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohatlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish Toshkent- 2013-yil.